3-SHO‘BA IQLIMGA CHIDAMLI TEXNOLOGIYALAR

Nukus · 16.10.2026

Qishloq xo‘jaligida investitsion faoliyatning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili

Baltashev Jursinbay Muratbaevich i.f.f.d. (PhD), ORCID: 0009-0005-3854-5641

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

baltashev80@gmail.com

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610089

Iqtibos uchun: Baltashev Jursinbay Muratbaevich. Qishloq xo‘jaligida investitsion faoliyatning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 343–345. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610089

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotning muhim omili sifatni ta’minlash orqali xizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi korxonasi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi, qishloq xo‘jaligi korxonasi samaradorligining iqtisodiy ko‘rsatkichlari, qishloq xo‘jaligi korxonasi samaradorligining ijtimoiy ko‘rsatkichlari ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Innovatsion, iqtisodiyot, ko‘rsatkich, qishloq xo‘jaligi, korxona, omil, samaradorlik, tizim, raqobatbardoshlik.
Аннотация. В данной статье раскрыты важный фактор инновационной экономики – обеспечение конкурентоспособности услуг путём обеспечения качества, система показателей оценки эффективности сельскохозяйственного предприятия, экономические показатели эффективности сельскохозяйственного предприятия, социальные показатели эффективности сельскохозяйственного предприятия.
Ключевые слова: Инновации, экономика, показатель, сельское хозяйство, предприятие, фактор, эффективность, система, конкурентоспособность.
Abstract. In this article, an important factor of the innovative economy – ensuring the competitiveness of services by ensuring quality, the system of indicators for evaluating the efficiency of an agricultural enterprise, the economic indicators of the efficiency of an agricultural enterprise and the social indicators of the efficiency of an agricultural enterprise are disclosed.
Keywords: Innovative, economy, indicator, agriculture, enterprise, factor, efficiency, system, competitiveness.

Kirish

Hozirgi vaqtda innovatsion iqtisodiyotning muhim omili sifatni ta’minlash orqali xizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlash hamda ishlab chiqarish kuchlarini mutanosib rivojlantirish, inson kapitaliga e’tiborni qaratish hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar eksportini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash ko‘rsatkichlari va omillarini tahlil etish qishloq xo‘jaligi natijalariga baho berish va xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka erishish asosiy maqsaddir. Shunday ekan, amaliyotda muayyan darajada iqtisodiy samaradorlik tamoyiliga amal qilinadi [1].

Asosiy qism. «Maqsad yoki natijada ehtiyojlarni aks ettirish darajasini ifodalovchi ehtiyojlar samaradorligi shuni ko‘rsatadiki, agarda personalni baholash tizimining maqsadli yo‘naltirilganligida baholash obyektlari va subyektlar ehtiyojlari hisobga olingan bo‘lsa hamda tizim shakllanishi natijasida uning barcha elementlari ehtiyojlari realizatsiya qilinsa, u holda uni samarali deb hisoblash mumkin» [2].

Samaradorlikning boshqa shakli personal ehtiyojlarining qondirilish darajasi tahlilini nazarda tutuvchi ijtimoiy samaradorlik hisoblanadi. Baholash tizimi ko‘p elementli tarkibni o‘zida namoyon etadi, shuning uchun uning samaradorligini tahlil etishda tashkiliy tarkib ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish zarur: subyektlar (rahbarlar) va obyektlar (alohida shaxslar), personalni boshqarish tizimi, tashkilotlar, tashqi muhit [3].

Qishloq xo‘jaligi korxonalari samaradorligini baholashda faqat mehnat yoki faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisobga olish yetarli hisoblanmaydi, chunki bu korxonaning samaradorligini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘lib [7], sifatni baholash jarayonida undan foydalanish uchun samarali vosita hisoblanmaydi. Bunda qishloq xo‘jaligi korxonalari samaradorligini baholashda ham iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ham ijtimoiy ko‘rsatkichlar hisobga olinishi kerak (1-jadval).

1-jadval. Qishloq xo‘jaligi korxonasi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi

T/r	*Ko‘rsatkichlar*	*Hisoblash algoritmi*	*Shartli belgilar*
I. *Qishloq xo‘jaligi korxonasi samaradorligining iqtisodiy ko‘rsatkichlari*			
1.1.	Mahsulot sotish rentabelligi	$R_{mt} = \frac{SF \times 100}{M}$	R_{ms} – mahsulot sotish rentabelligi; SF – sof foyda; M – mahsulot tannarxi;
1.2.	Asosiy fondlar rentabelligi	$R_{af} = \frac{SF \times 100}{AF}$	R – asosiy fondlar rentabelligi; SF – sof foyda; AF – asosiy fondlar qiymati;
1.3.	Fondlar qaytimi	$FQ = \frac{X_k}{AF}$	FQ – fondlar qaytimi; X_k – ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi.
1.4.	Korxonaning absolyut likvidlik koeffitsiyenti	$K_{al} = \frac{PM}{JM}$	K_{al} – absolyut likvidlik koeffitsiyenti; PM – pul mablag‘lari; JM – joriy majburiyatlar;
II. Qishloq xo‘jaligi korxonasi samaradorligining ijtimoiy ko‘rsatkichlari			
2.1.	Xodimlarning o‘rtacha malaka darajasi	$\overline{K} = \sum C_i K_i$	C_i – kategoriyadagi ishchilar soni, kishi; K_i – kategoriya.
2.2.	Korxonada ishchilarning ma’lumotlik darajasi	$Д_м = \frac{C_o + C_{o'm}}{C_{io'}} \cdot 100$	C_o – oliy ma’lumotli ishchilar soni, kishi; $C_{o'm}$ – o‘rta maxsus ma’lumotga ega ishchilar soni, kishi; $C_{io'}$ – ishchilarning o‘rtacha yillik soni, kishi.
2.4.	Qishloq xo‘jaligi madaniyati darajasi	$XD_m = \frac{\sum_{i=1}^{n} B_i}{5N}$	XD_m – qishloq xo‘jaligi madaniyati o‘rtacha darajasi; N – so‘rov o‘tkazilganlar soni, kishi; B_i - i - so‘ralgan kishining qo‘ygan bali, ball.
2.5.	Xizmat sifatining kompleks ko‘rsatkichi	$K_x = \sqrt[3]{K_x \cdot K_v \times XD_m}$	K_x – xarid qilishni amalga oshirish koeffitsiyenti; K_v – xaridorlarning bitta xaridi uchun vaqt sarfi koeffitsiyenti
2.6.	Jamoaning jipslashganlik darajasi	$J_i = \frac{T}{\frac{1}{2}N(N-1)}$	J_i – guruhlar jipsligi indeksi; T – o‘zaro ijobiy tanlovlar soni; N – jamoada mumkin bo‘lgan tanlovlar soni.

Mavjud ko‘rsatkichlardan alohida bittasi qo‘llanilsa, umumiy natijadorlikni ifodalamaydi. Chunki har bir ko‘rsatkich ijtimoiy samaraning kichik bir yo‘nalishinigina xarakterlaydi. Bu ko‘rsatkichlar birgalikda qo‘llanilsa, qishloq xo‘jaligi korxonalarining ijtimoiy samaradorligiga to‘liq baho berish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari samaradorligini baholash jarayonida hisobga olinishi kerak bo‘lgan bir qator omillar mavjud. Ular korxonaning rivojlanish salohiyatini aniqlash imkonini beruvchi bir qator muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Xulosa qilish mumkinki, har bir qishloq xo‘jaligi korxonasining faoliyatining o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra, yuqori salohiyatga ega xodimlar korxonaning eng muhim raqobat ustunligi hisoblanadi. Xodimlar o‘z mehnatining yakunidan manfaatdor bo‘lishi, korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashi uchun qishloq xo‘jaligi korxonasi jamoasining jipsligi koeffitsiyenti yuqori bo‘lishi zarur. Bu esa korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun belgilangan maqsadlarga muvofiq keladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda sohada band bo‘lgan mehnat resurslaridan samarali foydalanilsa va qishloq xo‘jaligi sifatini oshirishga ilmiy jihatdan yondashilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunga bog‘liq holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: sohada zamonaviy tarmoqlarning rivojlanishiga mos mutaxassisliklar va kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash va malakasini uzluksiz oshirish; qishloq xo‘jaligi jarayonlarini tashkil etishning ilg‘or usullarini amalda joriy etish; raqamli texnologiyalarga asoslangan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish; qishloq xo‘jaligi sohasi tarmoqlarida yangi ochilayotgan ish joylari bo‘yicha kadrlarga talabni prognozlashtirish; xizmatlar bozorida ishchi kuchi taklifi bo‘yicha raqobat muhitini yaratish va ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha maxsus maqsadli dasturlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Веснин В.Р. Управление персоналом. Теория и практика – М.: Проспект, 2011. 688 с.
2. Телегина, Н.Е. Социальная политика компании // Управление корпоративной культурой. – 2011.- № 1.-С. 30-37.
3. Маслов, Д.В., Тишков, Ю.С. Кадры решают все? / Д.В. Маслов, Ю.С. Тишков // Кадровик. Управление персоналом. – 2007. – N 9. – С. 120-141.
4. Иванцев Дж., Лобанов А.А. Человеческие ресурсы управления. Основы управления персоналом. – М.: Дело, 2005. – 176 с.;
5. Орехов В. Д. Обучение персонала: эффективность и экономичность // Управление персоналом.- 2011.-№3. – С .55-58.
6. Elubaev Allayar Quaníshbaevich. Milliy ekonomikani modernizaciyalaw sharayatinda respublikaniń agrosanaat óndirisinde integratsiyaníń innovaciyaliq processlerdi rawajlandiriw. // 2024-jıl 15-oktabr kúni Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, «Ekonomika» fakulteti «Ilim hám ekonomikaniń óz-ara baylanisi – modernizatsiyaliq hám innovaciyaliq rawajlaniw tiykari» atamasında xaliqaraliq ilimiy-ámeliy anjumani materiallar toplamí. [Tekst]: «Ekonomika» fakulteti. – Nókis, «BOOK PRINTS» baspası, 2024. 383-385 b.
7. Baltashev Jursinbay Muratbaevich, Elubaev Allayar Quaníshbaevich. Awil xojaliǵi resurslariniń sirt ellerdegi jaǵdayi hám integraciyaníń innovaciyalíq natiyjeliligin paydalaniw máseleleri. // 2024-jıl 15-oktabr kúni Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, «Ekonomika» fakulteti «Ilim hám ekonomikaniń óz-ara baylanisi – modernizatsiyaliq hám innovaciyaliq rawajlaniw tiykari» atamasında xaliqaraliq ilimiy-ámeliy anjumani materiallar toplamí. [Tekst]: «Ekonomika» fakulteti. – Nókis, «BOOK PRINTS» baspası, 2024. 380-382 b.

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610089